



**SOLIQDAN QOCHISH MEXANIZMLARINI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA
FISKAL INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH**

Axmedov Feruz Baxodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazi, PhD

Annotasiya. Mazkur maqolada respublikamizda so'ngi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiyoq ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ
МЕХАНИЗМОВ УКЛОНЕНИЯ ОТ УПЛАТЫ НАЛОГОВ**

Ахмедов Феруз Баходирович

Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете, к.э.н.

Аннотация. В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

**USE OF FISCAL INSTRUMENTS TO ENSURE THE EFFECTIVENESS OF TAX
AVOIDANCE MECHANISMS**

Akhmedov Feruz Bakhodirovich

Scientific research center "Scientific foundations and problems of the development of the economy of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics, Ph.D.

Annotation. This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish.

O'zbekistonda keyingi-yillarda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, u orqali yuzaga keluvchi soliqdan qochish holatlari hamda soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovslash holatlarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yashirin ish o'rinalarini legallashtirish, nazorat tadbirlarini o'tkazish yo'nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda. Jahon iqtisodiyotida global moliyaviy beqarorlik kuchayishi sharoitida qisqa va uzoq muddatli byudjet-soliq siyosatiga oid strategiyani ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlari oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotda noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to'lashdan bo'yin tovslash jarayonlarining oldini olish, soliq to'lashdan qochish xavflarini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Shumpeter (2007) ikki turga bo'linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo'lgan texnik nosozlik bilan bog'liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining yetishmasligi bilan bog'liq xavf.

Pokrovskiy (2011) ko'rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir qilish, xavf haqida mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar (xarajatlar), o'ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o'ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlanib, qaysiki ular rag'batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko'rsatishlarini ma'lum qilgan .

Aronov, Kashinlar (2004) o'zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatları, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lovlarini undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarini amalgalashgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov "Korxonalarini rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish hamda ularning debitor va kreditor qarzlarini qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergen.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to'lovchilarga davlat hamkor sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Buning sosial, iqtisodiy, huquqiy sabablarini ilmiy jihatdan izohlangan edi. Shu narsa ayonki, har qanday milliy iqtisodiyot uchun eng katta xavf bu globalashuv sharoitida milliy ehtiyojlarni qondira olmaslik xavfi bo'lsa, uning ichki zamirida iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot deb nomlanuvchi alohida iqtisodiyotning darajasi mavjudligi va uning o'sib borishi hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot esa o'zi bilan doimo soliqdan qochish kategoriyasini birga ergashtirib yuradi va uning holati va darajasiga ta'sir qilib boradi. Bundan shunday xulosa qilinadiki, soliqdan qochish holatlarining noqonuniy ko'rinishlarini kamaytirish chora-tadbirlarining samarasini ta'minlash o'z-o'zidan yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirishning turli xil usullaridan keng va samarali foydalanishni talab etadi.

Agar, bиргина о'tган 2022-yilning to'qqiz oylik davrida xufyonada iqtisodiyotning shakllanishi va uning oqibatida soliqdan qochish holatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu davrda 869 ta soliq to'lovchining xarid qilinayotgan tovarlari realizatsiya qilinayotgan tovarlar nomenklaturasiga nomutanosibligi va 1,12 trln.so'm soliq qarzdorligiga yo'l qo'yanligi sababli, soliq xavfi yuqori soliq to'lovchilar guruhiga kiritilgan va hisob raqamlaridagi kirim chiqim operatsiyasi vaqtinchalik to'xtatib

qo'yilgan. Mazkur soliq to'lovchilarning barchasida kameral soliq tekshiruvi tashkil qilingan. Kameral tekshiruv jarayonida 161 tasida sayyor soliq tekshiruvi tashkillashtirilib, tovarlar kamomadiga yo'l qo'ygan sub'ektlarga 276,7 mlrd.so'mlik qo'shimcha soliqlar hisoblangan. Hisoblangan qo'shimcha soliqlarning 138,4 mlrd. so'mligini to'lamasdan 51 tasi faoliyatini to'xtatib qo'ygan. Shundan 38 tasi bankrot deb e'lon qilinib qarzdorligi hisobdan chiqarilgan. 869 ta 1,12 trln.so'm qarzdorlikning majburiy undiruv choralarini to'liq ko'riganligiga qaramasdan mol-mulki va pul mablag'lari yo'qligi sababli byudjetga qarzdorligi to'lanmay kelmoqda. Sud ijrochilari tomonidan 136 tasining 482,7 mlrd.so'mlik qarzdorligi bo'yicha ijro hujjati mol-mulki yo'qligi sababli ijro qilinmasdan soliq organiga qaytarilgan.

2022-yil 1-yanvar holatida bunday xufyona faoliyat yuritib, noqonuniy foyda olib, soliqlarni to'lamasdan faoliyatini to'xtatib qo'ygan korxonalar soni 3093 tani ularning byudjet oldidagi qarzdorligi 3,8 trln.so'mni tashkil qilgan. 2022-yilning 1-yarim yilligida 1217 ta xuddi shunday korxonalarining ochilib, faoliyat ko'rsatganligi oqibatida soliq qarzdorligi 1,4 trln. so'mga ko'payib, xufyona faoliyat bilan shug'ullangan korxonalarining qarzdorligi 5,285 trln.so'mga etdi. Mazkur qarzdor soliq to'lovchilarning pul mablag'lari, mulklari va aktivlari mavjud bo'lmaganligi sababli 178 ta soliq to'lovchining 864,0 mlrd.so'mlik qarzdorligi bankrotlik ishi ochish orqali hisobdan chiqarilgan.



1-rasm. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga oid tadbirlar yo'nalishlari¹³

Mazkur 1-rasmda keltirilganidek, Bugungi kunda respublikamizda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish: me'yoriy huquqiy bazani mustahkamlash, sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yashirin ish o'rinlarini legallahshirish, nazarat tadbirlarini o'tkazish yo'nalishida olib borilmoqda. Jumladan, yashirin iqtisodiyotni oldini olishga yo'naltirilgan 15 ta me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va 15 ta hujjatlar loyihasi ustida ish olib borilmoqda, qabul qilingan me'yordarda 14 ta yangi instrumentlar va 3 ta javobgarliklar belgilangan. Ish olib borilayotgan loyihalarda tovar (xizmat)larning bozor narxlarini aniqlash, insofli soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish, servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, nazarat xaridini amalga oshirishda bank kartalaridan foydalanish tartibi, avtomobilarga yoqilg'i quyish stansiyalarida avtomatlashtirilgan nazarat tizimini joriy etish, maxsus hisobvaraqlari yuritishni bekor qilish va boshqa dolzarb masalalar nazarda tutilmoqda.

Elektron hisobvaraq-fakturani joriy etilishi natijasida – 2022-yil 9-oyida 38,3 mln.ta elektron hisobvaraq-faktura orqali 376,5 trln.so'mlik tovar va xizmatlar realizatsiyasi qamrab olindi, bu o'tgan yilning mos davriga (34,5 mln.ta EHF 316,4 trln.so'm) nisbatan 1,2 baravarga oshdi. Onlayn NKT hamda 1 foizlik "Cashback" joriy etilishi natijasida – 2022-yil 9-oyida 200,9 mln.ta chek orqali 47,0 trln.so'mlik savdo tushumlari soliq bazasiga kiritildi, ya'ni o'tgan yilning mos davriga (113,1 mln.ta chek 28,6 trln.so'm) nisbatan 1,6 baravarga oshdi. QQS to'lovchilarini soliq xavfiga qarab avtomatik segmentlash (past, o'rtalari va yuqori) va ro'yxitga olishning yangi tamoyillari joriy etilishi natijasida – 4,9 mingta korxonadan muammoli 738 mlrd.so'mlik QQS qarzi undirildi hamda 32,1 mingta holatda 576 mlrd.so'm asossiz "zachet"ning oldi olindi. QQS zanjiri uzilishini hisoblash hamda nazarat qilish orqali – 3,2 mingta korxonaning 634 mlrd.so'mlik QQSni qoplash bo'yicha arizalari kontragentlari va o'zidagi zanjir uzilishlari sababli rad etilib, byudjetdan asossiz mablag'lar qaytarilishiga yo'l qo'yilmadi.

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqorida respublikamizda soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar va ularni kamaytirishga qaratilgan choralarining mazmunini qisqacha yoritib o'tdik. Quyida esa, hanuz o'z echimini kutayotgan bu boradagi muammolarni hal etishning ilmiy asoslari sifatida bir qator ilmiy-amaliv takliflarimizni keltirib o'tamiz:

A) Iqtisodiy chora-tadbirlar:

Birinchidan, soliq bazasini bozor narxi asosida hisoblashga o'tish lozim.

Bugungi kunda bozor tamoyillari asosida narx shakllanishi tizimini samarali amalga oshirish va insofli soliq to'lovchilar va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish maqsadida tovarlar (xizmat)ning bozor narxini aniqlashning inson omilisiz avtomatlashtirilgan tizimini amaliyatga joriy etish lozim. Soliq bazasini aniqlashda tovarlarning (xizmatlarning) narxini ehtimolga eng yaqin va adolatli qiymati, shu jumladan, vakolatli organlar, baholash tashkilotlari tomonidan aniqlanadigan va (yoki) belgilangan, tovarlar (xizmatlar) bozorida realizatsiya qilinishi (ko'rsatilishi) mumkin bo'lgan qiymatni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, Bojxona qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra 2022-yilning olti oyligi holatiga 387 ta xo'jalik sub'ektlari tomonidan 2 670 ta holatda 262,7 mln.dollar miqdoridagi import qilingan tovarlarning faktura qiymatini eksport qiluvchi mamlakatda tovarning ma'lum qilingan qiymatiga nisbatan 60,7 mln.dollarga oshirilgan narxda xarid qilingan. Mazkur o'zgartirish kiritilishi hisobiga foyda solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza faqat importyorlarning o'zлari hisobiga 669,0 mlrd.so'mga oshishiga erishiladi.

Ikkinchidan, QQS zanjiri uzilishi (Tax gap) tushunchasi va ishslash mexanizmlarini aniq belgilash, jumladan QQS "zachet" summalarini korrektirovka qilish huquqini soliq organlariga berish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda QQS zanjiri uzilishi summasi 21,2 trln.so'mdan iborat va bu normaning kiritilmasligi byudjetga katta yo'qotishlarga sabab bo'lishda davom etadi. Bundan tashqari, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga ("zachetga") olishni shaffof va to'g'riliгини tekshirish maqsadida, QQS zanjiri ishtirokchilarining qaysi birida QQS to'liq (yoki umuman) to'lanmagan uzilishlarini avtomatik aniqlash "Tax gap" elektron dasturi ishga tushirildi. Ushbu uzilishlarga qasddan yo'l qo'yib, soliqdan qochish sxemalaridan foydalanayotgan sub'ektlar ustidan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, bizningcha QQS bilan bog'liq firibgarlik sxemalaridan foydalanib, soliq to'lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olish yoki soliq summalarini kamaytirishga doir ishlar bo'yicha soliq organlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv o'tkazish vakolatini belgilash, Davlat soliq qo'mitasining Soliqqa oid huquqbazarliklar bilan ishslash boshqarmasiga yuqorida qayd etilgan ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish vazifasini yuklatish, QQS to'g'ri hisoblanishi yuzasidan o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvida huquqni suiiste'mol qilish, shu jumladan:

qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik uchun bitimlar tuzish (operatsiyalar amalga oshirish) orqali soliqni to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik;

hisobga olinadigan soliq summasini qonunga xilof ravishda oshirish yoki to'lanadigan soliq summasini kamaytirish sxemalarining qo'llanishi natijasida asossiz soliq nafi olinganlik holatlari aniqlanganda soliq to'lovchiga soliq auditini tayinlash hamda soliq auditni natijasiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish masalasini hal qilish hamda soliq organlari ma'lumotlar bazasini tergovga qadar tekshiruv materiallarini ro'yxatga olish va natijalarini qayd etishning elektron jinoiy-huquqiy statistika yagona axborot tizimiga integratsiya qilish zarur bo'ladi.

Uchinchidan, MXIK va "E-aktiv" tizimini to'liq joriy etishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

QQS stavkasining 3 foiz punktga pasayishi natijasida keyingi yilda 15 foiz stavka va 12 foiz stavka orasida "zachet" summasi 3 trln.so'mdan oshishi kutilmoqda. Tovar qoldiqlarini elektron kuzatish tizimsiz nazorat qilish imkoniyati bo'lmaydi. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanayotganlar hisobiga segmentlab olingan faqat 112 ta korxona 7 oyda 1,8 trln.so'mlik obrot amalga oshirib, yana 1,9 trln.so'mlik tovar qoldig'im bor deb hisobot bergen (salbiy farq summasi 272 mlrd.so'm). Ular tomonidan bor-yo'g'i 2,5 mlrd.so'm QQS va 4,4 mlrd.so'm foyda (jami 6,9 mlrd.so'm) soliq to'langan xolos.

To'rtinchidan, ustav fondini shakllantirish (to'ldirish), moliyaviy yordam yoki qarz berish, shuningdek jismoniy shaxslar bilan tuzilgan investisiya shartnomalari bo'yicha operatsiyalar (ulushli ishtirok) soliq organlarining axborot tizimlarida majburiy ro'yxatga olish zarur.

Hisob-kitoblarga ko'ra davlat byudjeti yiliga o'rta hisobda 1,1 trln.so'mgacha yo'qotilmoqda. Ushbu holat jismoniy shaxslar tomonidan qurilish korxonalari ustav jamg'armasiga yirik miqdorda pul mablag'lari, bino va inshootlar, qurilish mollari (manbasi ko'rsatilmagan holda) kiritish va realizatsiya qilinishida ham qayd etilmoqda. Masalan, Uchtepa tumanidagi "Farrier home" MChJ QQS va foyda solig'idan qochgan holda qurilishni jismoniy shaxs nomiga bitkazib, keyin ustav fondiga 13,2 mlrd.so'mlik binoni kirim qilgan va bir kunda notarius orqali 58 ta xonadonni jismoniy shaxslarga rasmiylashtirib bergan.

Beshinchidan, Respublika ichida tovarlar harakatini to'laqonli nazorat qilish imkoniyatini yaratish maqsadida, Davlat bojxona qo'mitasi import va eksport bojxona yuk deklaratsiyalarini rasmiylashtirishda deklarantlar tomonidan mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya (MXIK) kodlarini ko'rsatgan holda Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish lozim.

Chunki, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan import qilingan mahsulotlarni realizatsiyasini kamaytirib ko'rsatilishi va soliqlardan qochish holatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun, bojxona organlari tomonidan import tovarlarni ishonchnoma asosida olib chiqilishi to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi yuritishni yo'nga qo'yish hamda mazkur ma'lumotlar Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish hamda import tovarlarni importyor tomonidan berilgan ishonchnoma asosida importyor korxona shtatida bo'lмаган (ushbu korxonada ishlamaydigan) shaxs yoki boshqa yuridik shaxs tomonidan barcha bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirgan holda olib chiqib ketilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni DSQga taqdim etishni belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida esa, import tovarlar sotuvi va kirim-chiqim hisobi ustidan nazorat o'rnatiladi va soliqdan qochish holatlarining oldi olinadi.

Oltinchidan, qurilish tarmog'ida "bir kunlik firmalar" faoliyatini oldini olish maqsadida qurilish tashkilotlari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar qurilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida qurilishda muhim bo'lган (sement, g'isht, metal, quvir, beton plita, shifer, tunuka (temir list), kabi asosiy qurilish mollarini birja savdolari orqali xarid qilish va yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Qurilish vazirligiga qurilish ishlarini boshlash uchun yuborilgan xabarnomalar va berilgan ruxsatnomalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish va onlaysiz rejimda taqdim etib borish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, qurilish tashkilotlari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar qurilish mollarini xarid qilish bilan bog'liq "bir kunlik firmalar" mablag'larni naqdashtirish holati hamon kuzatilmoqda.

Yettingchidan, ayrim soliq to'lovchilar tomonidan soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida hisob raqamiga "ustav fondini shakllantirish", "aylanma mablag'larni to'ldirish" kabi to'lov maqsadi bilan pul mablag'lari tushumini amalga oshirish holatlarining keskin ko'payib ketishi kuzatilmoqda.

Shu boisdan, soliqdan qochishdagi mazkur yo'nalishning oldini olishda Ustav fondini shakllantirishda ta'sischi (fuqaro) tomonidan ustav fondini to'ldirish yoki aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kiritilayotgan pul mablag'lari manbasi bo'yicha soliq organlariga deklaratsiya taqdim etish tizimini joriy etish zarur. Buning natijasida esa, haqiqatdagi savdo tushumlarini soliqdan qochish maqsadida, "ustav fondini shakllantirish", "aylanma mablag'larni to'ldirish" kabi topshirishning oldi olinadi va byudjetga soliqlar to'liq hisob-kitob qilinishiga olib keladi.

Sakkizinchidan, byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar tomonidan davlat xaridlari uchun "bir kunlik" firmalar bilan soxta bitimlar tuzgan holda tovarlar, xizmatlar narxini sun'iy oshirish orqali byudjet mablag'lari naqdashtirilmoqda va bu "bir kunlik" firmalar ishslash jarayonini davom ettirishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammoning oldini olish maqsadida byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar tomonidan davlat xaridlari uchun shartnoma imzolanadigan sotuvchi-korxonalarini "Soliq xavfi (qizil, sariq, yashil) va soliq uzilishi "Tax gap" darajasiga qarab, shartnoma tasdiqlanishi yoki tasdiqlanmasligini ko'rib chiqish lozim.

Misol uchun: Soliq xavfi darajasi qizil yoki sariq bo'lган hamda soliq uzilishi koeffisienti 0,6 dan yuqori bo'lganda shartnoma avtomatik shakllanmasligiga doir cheklov o'rnatish, bunda, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq xavfi yuqori deb baholangan sub'ektlarni rasmiy veb saytda joylashtirish va doimiy tarzda yangilab borish orqali savdo va tenderlarda ishtirokini cheklash bo'yicha qurilish vazirligi, g'aznachilik va tegishli idoralar bilan elektron tarzda ma'lumotlar almashinishni yo'nga qo'yish zarur bo'ladi.

To'qqizinchidan, Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va o'zini-o'zi band qilgan shaxslar hisobidan byudjetga qo'shimcha manbalarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunda, o'zini o'zi band qilish amaliyotining tahlili asosida o'zini o'zi band qilganlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish (kengaytirish), norasmiy sektorda band bo'lgan fuqarolarni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazish., o'zini o'zi band qilgan shaxslarni bosiqchma-bosqich qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nazorat-kassa texnikasi va bank plastik kartochkalari orqali hisob-kitoblar bo'yicha to'lov terminallaridan foydalanishga o'tkazish hamda tijorat banklarida hisobvaraqlari ochirish ishlarini jadallashtirish lozim bo'ladi.

O'ninchidan, qurilish va sohasida yashirin iqtisodiyot ko'lmini qisqartirishni kuchaytirish lozim.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun markazlashgan investisiyalar hisobiga qurilishni amalga oshirishda smeta hujjatlarida ko'zda tutilgan muhim hisoblash ko'rsatkichlarni Davlat soliq qo'mitasiga avtomatik tarzda taqdim etish, sotib olinayotgan ayniqsa import qilinayotgan tovar-moddiy boyliklarning narxini pasaytirib yoki orttirib ko'rsatilishi holatlarining oldini olish, Davlat soliq qo'mitasi va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi birgalikda qurilish ob'ektlariga ishchilar soni va ularga to'lov turlarini aniqlash maqsadida sayyor tekshiruvlar o'tkazishlari va boshqa qurilish sohasida soliq nazoratini kuchaytirishga qaratilgan choralarini ko'zda tutish lozim bo'ladi.

B) Huquqiy-iqtisodiy chora-tadbirlar:

Birinchidan, ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmonining 19-bandida davlat soliq xizmati organlarining mansabdar shaxslari nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan faqat soliq va valyuta qonunchiligiga rioya qilishga doir tekshiruvlarni o'tkazish uchun haftasiga 16 ish soatidan ko'p bo'lмаган muddatga jalb qilinishi mumkinligi belgilangan.

Bu erda muammo shundaki, jinoyat ishi doirasida tayinlangan taftish doirasida soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishlarda qatnashish uchun soliq organi xodimlarini surunkali ravishda (oylab) jalb etilishi holatlari mavjud.

Ushbu muammoning echimi sifatida jinoyat ishi doirasida tayinlangan taftish doirasida soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishlarda qatnashish uchun soliq organi xodimlarini haftasiga 16 soatdan ko'p bo'lмаган muddatga jalb etilishini nazoratga olish va prokuratura organlarini ichki idoraviy hujjatlarida bu haqda belgilab qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 187-2-moddasiga binoan JPKning 187-6-moddasida tekshirilayotgan sub'ekt mansabdar shaxsining yoki vakilining yo'qligi taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmasligi, bunday holda taftish tekshirilayotgan sub'ektning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi, ishda mavjud bo'lgan hujjatlar, axborot va materiallar asosida o'tkazilishi belgilangan.

Shuningdek, tekshirilayotgan sub'ektning hujjatlari, axboroti va materiallari yo'qotilgan, yo'q qilingan yoki mavjud bo'lмаган taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan masalalarni o'rganishni soliq, valyutaga oid, buxgalteriya to'g'risidagi qonunchilikka va boshqa qonunchilikka muvofiq o'tkazishi mumkinligi belgilangan. Muammo shundaki, tekshirilayotgan sub'ektning hujjatlari, axboroti va materiallari yo'qotilgan, yo'q qilingan yoki mavjud bo'lмаган taqdirda soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha soliq audit o'tkazishni imkonli mavjud emas.

Xulosa va takliflar.

Soliq ma'muriyatichilagini kuchaytirish uchun soliq to'lashdan bo'yin tovplashni yanada samarali aniqlash va oldini olish uchun soliq ma'muriyatining imkoniyatlarini, jumladan texnologik infratuzilma, ma'lumotlar tahlili va malakali ishchi kuchini oshirish.Yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanishga moyilliги yuqori bo'lgan tarmoqlar va shaxslarga qaratilgan riskga asoslangan audit yondashuvlarini amalga oshirish zarur.

Soliqdan bo'yin tovlaganlarga nisbatan qattiq jazo va sanktsiyalar, jumladan jarimlar, jinoiy javobgarlikka tortish va mulkni musodara qilish. Jismoniy shaxslarni qasos olishdan qo'rmasdan soliq to'lashdan bo'yin tovplash faoliyati to'g'risida xabar berishga undash uchun ma'lumot beruvchini himoya qilish dasturini amalga oshirish.

Soliq to'lashdan bo'yin tovplash bilan bog'liq jinoiy daromadlarni legallashtirish faoliyatini aniqlash va oldini olish uchun soliq organlari va moliyaviy razvedka bo'linmalari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni yaxshilash. Soliq to'lashdan bo'yin tovplash maqsadida korporativ tuzilmalardan noto'g'ri foydalanishning oldini olish uchun tadbirkorlik sub'ektlarining benefisiar egalik huquqini aniqlash va tekshirish tartiblarini takomillashtirish. Baholash natijalari va soliq to'lashdan bo'yin

tovlashning paydo bo'layotgan tendentsiyalari asosida strategiyalarni muntazam ravishda ko'rib chiqing va yangilang.

Ushbu taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga va soliqqa rioya etilishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Soliq ma'muriyatichiligini kuchaytirish, soliq tartib-qoidalarini soddashtirish, soliq to'lovchilar bilimini oshirish va qat'iy jazo choralarini qo'llash orqali O'zbekiston yanada shaffof va adolatli soliq tizimini yaratishi mumkin, bu esa daromadlarni yig'ish va iqtisodiy o'sishning oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Litteratura/Reference:

F.Axmedov (2023) *Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent.*

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

Андреева В.А. (2017) Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука /4 (14). стр.136-140.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.

Жалонкина И, (2012) "Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской Федерации". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

Кристина Ф.Б. (2004) "The Informal Economy" march, Шведский Международный агентство сотрудничества развития CE-105 25 Стокголма Швеция.

Кузнесов А.Л. (2016) Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект). [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilieva.narod.ru/zhurnal>

Нормурзаев У.Х. (2014) Иқтисодиётни тартибга солишда солиқ имтиёзларининг аҳамияти ва бюджет даромадларини шакллантиришдаги роли//Экономика и финансы (Узбекистан). №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/i-tisodiyotni-tartibga-solishda-soli-imtiyozlarininig-a-amiyati-va-byudzhet-daromadlarini-shakllantirishdagi-roli>

Нормурзаев У.Х. (2020) Солиқ имтиёзлари орқали иқтисодиёт тармоқлари ҳамда соҳаларида тизимли таркибий ислоҳотларни қўллаб-қувватлаш сиёсати // Экономика и финансы (Узбекистан). №4 (136). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/soli-imtiyozlari-or-ali-i-tisodiyot-tarmo-lari-so-alarida-tizimli-tarkibiy-islo-otlarni-llab-uvvatlash-siyosati>.

Нормурзаев, У. (2021). Тадбиркорларни қўллаб-қувватлашда солиқ имтиёзларини бериш орқали самарали усуllibardan фойдаланиш йўллари. *Economics and education*, (3), 91-95.

Нормурзаев, У. (2022). Ҳукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислоҳотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(5), 325-330.

Нормурзаев, У. (2023). Солиқ имтиёзлари бериш тартибини тақомиллаштириш масалалари. *Economics and education*, 24(1), 334-339.

Нормурзаев, У. (2023). Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида молия бозорининг долзарб муаммолари тадбиркорликни тенг рақобат шароитларини яратиш ҳамда яширин иқтисодиёт улушкини қисқартириш йўлари. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 88-89.

Нормурзаев, У. Х. (2021). 2021 йилдаги солиқ маъмурчилиги ҳамда солиқ кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан. *Интернаука*, (6-2), 99-100.

Нормурзаев, У. Х. (2021). Ҳукуматимиз томонидан берилаётган солиқ имтиёзларининг ҳисобини юритиш ва самарадорлигини таҳлил қилиш масалалари. Экономика и финансы (Узбекистан), (10 (146)), 47-56.

Покровский А.К. (2011) Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. М.: Изд-во Кнорус, 160 с.

Шумпетер Й. (2007) Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шумпетер. М.: Изд-во Эксмо, 864 с.